



Alisher Navoiy nomidagi  
Toshkent davlat o'zbek tili  
va adabiyoti universiteti



**TASHENEV**  
UNIVERSITY



# “Alisher Navoiy va XXI asr”

**10-ULUSLARARO KONFERANSI**

*Toshkent-Shimkent, 2025-yil 6-fevral*

# “Әлішер Науаи және XXI ғасыр”


**10-ХАЛЫҚАРАЛЫҚ КОНФЕРЕНЦИЯ**

*Ташкент-Шымкент, 6 ақпан 2025 жыл*

# “Alisher Navo'i and the 21st century”

**10th INTERNATIONAL CONFERENCE**

*Tashkent-Shymkent, February 6, 2025*



**Alisher Navoiy nomidagi  
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti  
Qozog'iston Respublikasi Jumabek  
Tashenev nomli universitet**

# **«ALISHER NAVOIY VA XXI ASR»**

**mavzusidagi 10-uluslararo konferansi  
materiallari**

**2025-yil 6-fevral**

**Toshkent – Chimkent – 2025**

**UO'K: 821.161.1=512.133**

**KBK: 83.3 (50')**

**A 51**

**Mas'ul muharrirlar:**

**Shuhrat SIROJIDDINOV,**

filologiya fanlari doktori, akademik  
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili  
va adabiyoti universiteti rektori

**Kanat BAYBOLOV,**

Jumabek Axmetuli Tashenev nomli universitet rektori,  
texnika fanlari doktori, professor

**Tahrir hay'ati:**

Boqijon To'xliyev (O'zbekiston), Nurboy Jabborov (O'zbekiston), Parida Bayneeva (Qozog'iston), Kemal Yavuz Ataman (Turkiya), Yashar Qosim (Ozarbayjon), Islam Jemeney (Qozog'iston), Farhod Rahimiy (Eron), Sholpan Arzimbetova (Qozog'iston), Karomat Mullaxo'jayeva (O'zbekiston), Janna Botabaeva (Qozog'iston), Baxtiyor Fayzullayev (Tojikiston), Dilnavoz Yusupova (O'zbekiston), Nozliya Normurodova (O'zbekiston), Shahlo Naraliyeva (Qozog'iston), Ilyos Ismoilov (O'zbekiston), Azizullah Aral (Afg'oniston), Orzigul Hamroyeva (O'zbekiston), Ozoda Tojiboyeva (O'zbekiston)

Ushbu to'plamda "Alisher Navoiy va XXI asr" mavzusidagi 10-uluslararo konferansi materiallari jamlangan. To'plamda Alisher Navoiy adabiy-ilmiiy merosining mumtoz adabiyotimizdagi o'rni va bugungi kun uchun ahamiyati, shuningdek, shoir ijodiga bog'liq holda matnshunoslik va tilshunoslik muammolariga doir ilmiy maqolalar o'rin olgan. Navoiyshunoslikning bugungi holati va istiqboli borasida muayyan tasavvur berishi uning ahamiyatini belgilaydigan omillardan biridir. Kitob filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistrantlar va bakalavr talabalari hamda keng o'quvchilar ommasiga mo'ljallangan.

*Mualliflar qarashi va asarlar nomlaridagi imlo tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.*

**Әлішер Науаи атындағы Ташкент  
мемлекеттік өзбек тілі мен әдебиеті университеті**

**Қазақстан Республикасы Жұмабек  
Тәшенев атындағы университет**

# **«ӘЛІШЕР НАУАИ ЖӘНЕ XXI ҒАСЫР»**

**тақырыбындағы 10-халықаралық  
конференция материалдары**

**2025 жыл 6 ақпан**

**Ташкент – Шымкент – 2025**

- 4- Hüseyin Baykara, Divan, Hazırlayan: T. Yıldırım, TDK yayınları, Ankara 2021.
- 5- Şamanizm, Cemal Şener, etik yayınları, İstanbul 2003. 13. Baskı.
- 6- Türk mitolojisi, C. Beydili, Çeviren: E. Ercan, Yurt yayınları, Ankara 2003.
- 7- Mevlana Lutfi, Divan, Hazırlayan: G. Karaağaç, TDK yayınları, Ankara 2020.
- 8- Laylı va majnun, Alishir Nevaiy, Gafur Gulam nashriyat. Toshkent 2006.
- 9- Hayrt ul-abrar, Alishir Nevaiy, Gafur Gulam nashriyat. Toshkent 2006.
- 10- Sabai sayyor, Alishir Nevaiy, Gafur Gulam nashriyat. Toshkent 2006.
- 11- Farhod ve shirin, Alishir Nevaiy, Gafur Gulam nashriyat. Toshkent 2006.
- 12- Seddi iskenderiy, Alishir Nevaiy, Gafur Gulam nashriyat. Toshkent 2006.

• **Arap alfabesi ile yazılan Türkçe ve Farsça kaynaklar:**

- 13- امیر علی شیر نوابی، غرائب الصغر، حاضیر لایان: غ. رزمی، تجدد نشریاتی، 1402.
- 14- امیر علی شیر نوابی، نوادالشباب، حاضیر لایان: غ. رزمی، تجدد نشریاتی، 1402.
- 15- امیر علی شیر نوابی، بدایع الوسط، حاضیر لایان: غ. رزمی، تجدد نشریاتی، 1402.
- 16- امیر علی شیر نوابی، فوائدالکبر، حاضیر لایان: غ. رزمی، تجدد نشریاتی، 1402.
- 5- دیوان لغات الترك اثرینده ادبی متن لر و تترمین لر، م. کاشغری، حاضیر لایان: س. ح. ارگین اوشار، ناشر قارا چوخا، تبریز

1401.

- 17- دیوان فضولی، فخر آذر نشریاتی، تبریز 1371.
- 18- دیوان خواجه شمس الدین محمد حافظ شیرازی، تصحیح: دکتر غنی قزوینی، انتشارات عرفان 1368، ص 210.
- 19- سنگلاخ، امیر علیشیر نوابی، حاضیر لایان: میرزا مهدی خان استرآبادی. اختر نشریاتی، تبریز.
- 20- آئین باستانی شمنیسم، ع. اینان، انتشارات دنیز چین ص 88.
- 21- دیوان خاقانی، با مقدمه ب. فروزانفر، تهران 1375، موسسه نگاه.
- 22- مثنوی معنوی، مولانا جلال الدین بلخی، با مقدمه نیکلسون و ب. فروزانفر، انتشارات بدرقه جاویدان، تهران.

• **İngizce ve Arapça kaynaklar:**

- 23- Mircea Eliade, Shamanism Archaic Techniques of Ecstasy, Princeton university, 1972.
- 24- فضایل الاتراک، ا. جاحظ، سلیمانیه و آیاصوفیا کتبخانه سی، ال یازما نسخه سی، نر 4154.
- 25- الجماهر فی الجواهر، ابوریحان بیرونی، تحقیق یوسف هادی، تهران 1374.

## PARIJ KULLIYOTIDAGI “FAVOYID UL-KIBAR”NING MATNIY XUSUSIYATLARI

**Tojiboyeva Ozoda Tohirovna**

*Alisher Navoiy nomidagi TDO‘TAU dotsenti, PhD*

*ozoda@navoiy-uni.uz*

10.52773/tsuull.conf.navoiy.2025/GOFZ4709

**Annotatsiya:** Alisher Navoiy asarlarining katta qismini o‘zida jamlagan kulliyotlar fanda alohida qimmat kasb etadi. Mazkur maqolada Navoiy asarlarining 26 tasini o‘zida jamlagan kulliyotlardan biri – Parij kulliyoti asosiy obyekt qilib olingan. Kulliyotdagi “Favoyid ul-kibar” devoni matnidagi she’rlarning farqli xususiyatlari ko‘rsatilgan.

**Kalit so‘zlar:** qo‘lyozma, kulliyot, xattot, devon, matn, baytlar.

### TEXTUAL FEATURES OF “FAWOYID UL-KIBAR” IN THE PARIS COLLEGE

**Abstract.** This article examines the scientific significance of collections containing the majority of Alisher Navoi's works, with a particular focus on the Paris Collection, which includes 26 of his works. The study highlights the unique features of the poems within the text of Navoi's Favoyid ul-Kibar, analyzing their distinctive characteristics and the contributions of this collection to the broader field of Navoi studies.

**Keywords:** manuscript, collection, calligrapher, divan, text, poems.

Alisher Navoiy qo'lyozmalari o'zining ko'chirilish davri, joyi, xattotiga ko'ra ilmiy tasniflanadi va muallif davriga yaqinligiga ko'ra qadrlanadi. Turli qo'lyozmalar qatorida ko'p sonli asarlarni o'zida jamlagan kulliyotlar ham alohida o'rin tutadi. Alisher Navoiyning yirik hajmdagi asarlaridan iborat kulliyotlarning bugun fanga bir qanchasi ma'lum. Xorijiy davlat fondlarida saqlanayotgan mazkur kulliyotlar o'z davrida M.Hakimov, H.Sulaymonov, yaqin yillar ichida O.Madaliyeva tomonidan atroflicha o'rganilgan va yoritilgan. Jami sakkizta deb qaraluvchi mazkur kulliyotlar sirasidan eng mo'tabar manba sifatida e'tirof etiluvchi 3 ta kulliyot alohida ajralib turadi:

1. Turkiya, To'pqopi kutubxonasidagi Revan 808-raqamli kulliyot. 1496/97-1499/1500-yillar davomida Darvesh Muhammad Toqiy tomonidan Hirotida ko'chirilgan.

2. Parijdagi 316-317-raqamli kulliyot. 932-933: 1526/27-yillarda Hirotida kotib Ali Hijroniy tomonidan ko'chirilgan.

3. Sulaymoniya Fotih kutubxonasidagi 4056-raqamli kulliyot. Navoiyshunos olimi O.Madaliyeva "Nusxada Sulton Mahmud I ning (1730-1754) muhri mavjudligi kulliyotning mazkur Sulton hukmronligi davrida yoki undan avval tasnif qilinganini bildiradi", deb ma'lumot beradi [Madaliyeva 2021, 136].

Atoqli manbashunos olim Hamid Sulaymon "Alisher Navoiy kulliyoti qo'lyozmalari tadqiqotidan" nomli maqolasida quyidagicha ta'kidlaydi: "Tarixiy manbalardan ma'lum bo'lishicha, kulliyotlar ba'zan muallif tomonidan, ko'proq muallif vafotidan so'ng boshqa shaxslar tomonidan tuzilgan. Bu o'rinda biz Navoiy kulliyotining birinchi va asosiy musannifi shoirning o'zi ekanini ko'ramiz" 90. Kitobning Navoiy tiriklik davrida Sulton Husayn Boyqaro saroyining eng mohir xattoti Darvesh Muhammad Toqiy tomonidan besh yil davomida ko'chirilgani, ilk bora "Munojot"ning kulliyotga "so'zboshi" sifatida kiritilgani, asarlar janriga ko'ra emas, mazmun-mohiyatiga ko'ra joylashtirilgani asos sifatida ko'rsatilgan. Har bir asarni ko'chirish jarayoni bevosita Navoiyning kuzatuvi ostida olib borilgan bo'lishi haqiqatga yaqinligi qayd etiladi. Kulliyotga 26 ta asar kiritilgan. Yuqoridagi Parij va Sulaymoniya nusxalarida xuddi mana shu 26 ta asar jamlanmasi, tartibi saqlangan. Shu ma'noda fanda har uch kulliyot, ayniqsa, Revan va Parij kulliyoti buyuk shoir o'zi bevosita tiriklik davrida nazorat qilib turgan kulliyot tartibini eslatuvchi, shoirning prinsiplari, qolaversa davriy yaqinligi, kitobatchilikning yuqori malakali san'at egalari tomonidan bajarilganiga ko'ra ham noyob nusxalar sanaladi.

Parij kulliyoti haqida ilk bora o'zbek ilm-faniga Hamid Sulaymon tomonidan ma'lum qilingan. Parij kulliyoti ikki jildan (I jild 469, II jild 406 varaq) iborat bo'lib, uch yil – 930-1523/1524 va 933-1526/27-yillar davomida Hirotida xattot Ali Hijroniy tomonidan ko'chirilgan. Ko'rinadiki, kulliyot Navoiy davriga yaqin yillarda, Hirot adabiy maktabi an'analari, ruhi hali so'nmagan bir davrda ko'chirilgan. Olim H.Sulaymon qayd etishicha, "Ali Hijroniy, shubhasiz, o'z davrining yuksak ma'lumotli namoyandasi, didi baland kishisi hisoblangan. Matnga qo'yilgan harakatlarga qaraganda, u o'zbeklardan bo'lgan. ... Asar matni kulliyotning boshqa nusxalariga qaraganda muallif tahririga ancha yaqin bo'lib, unda tafovutlar juda kam" [Sulaymonov 1973, 192].

Yuqoridagi fikrga e'tibor berilsa, olimning Ali Hijroniy o'zbek bo'lishi mumkin deb ishora qilgani ko'chirilgan matndan sezilib turadi.

1. Tashdid, hamza belgilarining qo'yilishida. Alisher Navoiyning o'zi musanniflik qilgan deb sanaluvchi mo'tabar nusxa – 808-raqamli kulliyotga qiyosan ko'rilganda, mazkur kulliyot tarkibidagi matnlarda ana o'sha belgilar aksariyat qo'llanmagan. Belgilarning qo'yilishi o'zbek kitobxoniga qulaylik tug'diradi. Jumladan, eng ko'p qo'llanuvchi – *ollida, ollinda* kabi so'zlarni o'qish va yozishda aniqlik yaratadi. Parij kulliyotida undosh tashdid va hamza belgilari aniq qo'yilgan.

2. Alif harfi bilan boshlanuvchi so'zlarning qo'llanishida. Xususan, *anga – onga, aning – oning, aningdek – oningdek, ani – oni* kabi so'zlarda 808-raqamli kulliyotda mantiqiy ravishda almashib borishi, Sulaymoniya kulliyotida esa deyarli barchasi **o** bilan, Parij nusxasida esa qarluq shevasiga mos **a** bilan berilishi kuzatiladi. Shu kabi matnning yengil, ravon o'qilishi kabi qator xususiyatlariga ko'ra ham Ali Hijroniy o'zbek degan xulosaga kelish mumkin.

Parij kulliyoti matni kulliyotning boshqa nusxalariga qaraganda muallif tahririga (№808) ancha yaqinligi matniy farqlardan ko'rinadi: Parij matnidagi so'zlar aksariyat Navoiy o'zi tasnif bergan deb qaraluvchi 808 raqamli kulliyot matni bilan deyarli bir xil. Sulaymoniya nusxasida esa jiddiy farqlar bor. Matndagi ayrim farqli so'zlarda 808 – Revan va Parij nusxasi bir xil, Sulaymoniya nusxasi esa ulardan farqlanadi. Demak, Parij nusxasi ishonchli nusxadan ko'chirilgan, qolaversa davr jihatidan Navoiy davriga juda yaqin. Ali Hijroniy kulliyotni 808 raqamli kulliyotdan ko'chirganmi, degan fikr ham yuzaga keladi, biroq ayrim she'rlar hajmida farqlar borligi Ali Hijroniyning qo'shimcha manbalardan foydalanganini ko'rsatadi.

H.Sulaymon ta'kidicha, "Parij kulliyotining "Xazoyin ul-maoniy" qismida boshqa qo'lyozmalarda uchramagan va biz chop ettirgan to'rt tomlikka ilova qilingan she'rlarga ham kiritilmagan Alisher Navoiyning 33 g'azali uchraydiki, bu mazkur qo'lyozmaning ahamiyatini yanada orttiradi. Bu g'azallarning ko'pchiligi Istanbul kulliyotida ham bor, lekin "Xazoyin ul-maoniy" gacha bo'lgan "Devon" va devonlar majmuasining bizga ma'lum bo'lgan birortasida ham uchramaydi" [Sulaymonov 1973, 194]. Ko'rinadiki, Parij nusxasi ko'plab afzalliklariga ko'ra ilmiy-tanqidiy, qiyosiy-matniy tadqiqotlar uchun tayanch asoslardan biri bo'la oladi.

Ta'kidlash joiz, Hamid Sulaymon "Xazoyin ul-maoniy" devonlari akademik nashrini tayyorlashda Sankt-Peterburgdagi 1498/99-yillar ko'chirilgan №55, Tojikiston FA Sharqshunoslik fondidagi 1499/500-yillar ko'chirilgan № 1990 va Toshkent fondlaridagi qo'lyozmalardan foydalangan. Olim "Xazoyin ul-maoniy"ning akademik nashriga yozgan so'zboshida aynan "Favoyid ul-kibar" matnini tayyorlashda yuqoridagi ikki qo'lyozmaga tayanganini qayd etadi. Yuqorida qayd etilgan har uch kulliyot – Revan №808, Parij №316-317, Sulaymoniya №4056-nusxalari olim devonlarni nashrga tayyorlagandan so'ng qo'lga kiritilgan. Keyingi nashrlarda mazkur nusxalar asosida qayta ko'rib chiqilgani va to'ldirilgani aytiladi.

Kulliyotning o'zgachaligi unda qo'lyozmalarda yo'q ayrim baytlar mavjud. Matniy qiyoslarda ayni baytlar olimlar Alisher Navoiyning o'zi tasnif qilgan deb qaraluvchi 808 raqamli kulliyotda ham yo'q. Bundan quyidagicha xulosa qilish mumkin:

1. Agar 808 raqamli kulliyotni Alisher Navoiyning o'zi tasnif qilgan bo'lsa, tushirib qoldirilgan ayrim baytlarni shoirning o'zi ongli tarzda kiritmagan, she'rlarni kulliyotga ko'chirtirayotganda matniy tahrir qilgan bo'lishi mumkin. Chunki №808 da 7 baytli g'azal, Parij nusxadagi bir baytni qo'shish bilan 8 baytli g'azalga aylangan. Aynan 8 baytli g'azal bahsli bo'lgani navoiyshunoslarga ma'lum.

2. Kuliyotni ko'chirgan Ali Hijroniy Alisher Navoiy yashagan davrdan 25 yil farq bilan Hirotida ko'chiryapti. Har holda xattot Sultonali Mashhadiy asos solgan Hirot maktabi davomchisi. Garchi keyinchalik shayboniylar, so'ng savafiylar egallagan bo'lsa ham xattot temuriylar davri adabiy maktabi vakili. Uning qo'lida Navoiy devonlarining mo'tabar nusxalari bo'lgan va ortiqcha baytlarni ulardan ko'chirgan bo'lishi mumkin.

Tekshirilayotgan Parij kuliyotidagi "Favoyid ul-kibar" devoni matni tarkibda 202b-268b-sahifalardan o'rin olgan. Matnlar qiyosidan bir qancha baytlar faqat Parij nusxada borligi aniq bo'ladi. Jumladan, devondagi "Qachon maktabda ul mohi muaddab" matla'li 46-g'azal Revan №808, Sulaymoniya № 4056 va joriy 10 tomlik nashrda 7 baytdan iborat.

*Qachon maktabda ul mohi muaddab*

*Borur, o'zdin borurlar ahli maktab.*

*Bo'lur lavhi zabarjad ahli hayron,*

*Chu olur ilgiga lavhi muzahhab.*

*Degach abjad, boshig'a evrulurlar*

*Qamar birla quyosh, ya'ni jadu ab.*

*Nechukkim maktab atfoli xurushi,*

*G'amidin xalq aro faryodu yo Rab.*

*Muallim qullug'ig'a xat berurmen,*

*Gar ozod o'lsa ul sarvi shakarlab.*

*Dabistoni fanoda shurb darsin*

*Ravon qilmay, emassen ahli mashrab.*

*Qachon behush o'lurmen o'zhlukumdin*

*Agar to'ldursang jomim labolab.*

*Navoiy ashkidin to shom anjum*

*To'kar, chiqqaymu deb ul sa'd kavkab.*

G'azaldagi maqta'dan oldin kelgan "Qachon behush o'lurmen o'zhlukumdin /Agar to'ldursang jomim labolab" bayti faqat Parij kuliyotida bor. Matn qiyoslanganda ayrim so'zlarda ham farqlar borligi aniqlandi. Joriy nashrda ham mavjud bo'lmagan mazkur baytni demak Ali Hijroniy bizga ma'lum bo'lmagan boshqa qo'lyozmadan olgan. She'r mazmuniga e'tibor berilsa, g'azal oshiqona mazmunda. G'azalda oshiqning harakatlari jonli tarzda voqeabandlikda davom etadi. Deyarli har bir baytda voqealar o'sib boradi, maktabga oshiqning borgani, yorni intizor kutish asnosida ustozga yorni darsdan ozod qilish xatini uzatishi mazmunida davom etadi. Aynan tushirib qoldirilgan baytda maktab bilan bog'liq emas, oshiqning qalbini yor ishq mayiga to'ldirsa, o'zhlukidan ketishi, hushidan ketib, ishqda sarxush bo'lishi mazmuni ifoda etilgan. She'rning kompozitsiyasiga ko'ra voqeabandlik yuqoridagi misralarda yakun topadi. Maqtada shoirning xulosasi va o'z-o'ziga murojaati beriladi. Parij nusxasida uchraydigan mazkur bayt she'rdagi maktab voqeasi bilan bog'lanmagan, ammo ishq mavzusiga aloqador. Baytning tushib qolishi she'r mazmuniga jiddiy ta'sir ko'rsatmagan. Faqatgina Parij nusxada berilgan mazkur bayt Navoiyning o'zi tomonidan boshqa qo'lyozmalarga kiritilmagan bo'lish ehtimoli bor.

Alisher Navoiyning "Favoyid ul-kibar" devoni qiyosiy-yig'ma matni bo'yicha dissertatsiya himoya qilgan va devonni turk alifbosida qiyosiy nashrlar bilan chop qilgan Onal Kaya ham tushirib qoldirilgan baytlarni kiritib o'tgan. Onal Kaya matnni ko'chirishda asosan 808 raqamli kuliyotga tayangan va qolgan qo'lyozmalardagi farqlarni qiyoslarda ko'rsatib o'tgan.

Yana 137-gʻazalda ham “Jon aziz asru fidoyu yori joni boʻlgʻali /Der na ekin oshiqi bechora ul jonni netar” misrasi faqat Parij nusxasida bor. “Vaslidin chun multafit koʻproq boʻlur furqatda yor” matlasi bilan boshlanuvchi gʻazal anchayin muammoli gʻazal boʻlib, “Koʻz diyoru yordin soʻrmongki, hijron dashtida / Qolgʻali bekas unut boʻlmish manga yoru diyor” mazmunidagi 6-bayti haqida Alisher Navoiy asarlarining 20 tomlik nashrida quyidagicha izoh berilgan: “Bu gʻazal “Navodir un-nihoya” devonidan kiritilgan boʻlib, qoʻlyozmada “Soʻzu yoru yordin soʻrmongki, hijron dashtida / Qolgʻali bekas unut boʻlmish manga yoru diyor” bayti bor, ammo u “Xazoyin ul-maoniy”ning XV – XVI asr qoʻlyozmalarining birortasiga ham kiritilmagan, shuning uchun mazkur bayt tushirib qoldirildi” [Navoiy 1990, 72-73].

Bayt 20 tomlikdan tushirib qoldirilgan boʻlsa ham 10 tomlikda 6 bayt sifatida keltirilgan. Natijada, 10 tomlikda iqtibosda emas, sheʼr matnidan oʻrin olgan mazkur bayt bilan 7 baytli gʻazalga aylangan, iqtibosdagi izoh olib tashlangan. Parij qoʻlyozmasini qiyosiy matn uchun tekshirish jarayonida topilgan mazkur bayt tufayli sheʼr 8 baytli gʻazalga aylandi.

Shu oʻrinda “Navodir un-nihoya”dan oʻtgan gʻazalning qay tarzda oʻzgarishi va farqli jihatlarini qiyosiy jadvalda koʻrib oʻtamiz:

|   | “Navodir un-nihoya”                                                                                     | “Favoyid ul-kibar”                                                                                      |
|---|---------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| 1 | Vaslidin chun multafit koʻprak boʻlur furqatda yor,<br>Tarki vasl aylab qiling, ahhob, furqat ixtiyor.  | Vaslidin chun multafit koʻproq boʻlur furqatda yor,<br>Tarki vasl aylab qiling, ahhob, furqat ixtiyor.  |
| 2 | Dema koʻnglung boʻldimu tark aylamoq yoru vatan,<br>Ne koʻngulni tark qilmoq, ne vatan, vah, qaysi yor. | Dema koʻnglung boʻldimu tark aylamak yoru vatan,<br>Ne koʻngulni tark qilmoq, ne vatan, vah, qaysi yor. |
| 3 | Soʻzu yoru yordin soʻrmangki, hijron dashtida<br>Qolgʻaln beqas unut boʻlmish menga yoru diyor.         | Topmadim bar nechakim mehru vafo tufrogʻida,<br>Dona sochtim ashkdin, kirpik bila aylab shiyor.         |
| 4 | Topmadim bir nechakim mehru vafo tufrogʻida<br>Dona sochtim ashkdin kiprik bila aylab shiyor.           | Siymgun ashk oʻlmoq oltundek yuz uzra ne osigʻ,<br>Jism hijron koʻrasida boʻlmayin xolis iyor.          |
| 5 | Siymgun ashk emas oltundek yuz uzra, ne osigʻ,<br>Jism hijron koʻrasida boʻlmayin sohib iyor.           | Kimki, olam xalqi birla oshnoligʻ qilmadi,<br>Oni de farxunda axtar, muni bilgil baxtiyor.              |
| 6 | Kimki olam ahli birla oshnoligʻ qilmadi,<br>Oni de farhunda baxtu oni bilgil baxtiyor.                  | Coʻz diyoru yordin soʻrmongki, hijron dashtida<br>Qolgʻali bekas unut boʻlmish manga yoru diyor.        |
| 7 | Holini naylab nihon tutsun Navoiy xastakim,<br>Tiysa ashkin oh urar, yigʻlar agar ohin tiyor.           | Jon aziz asru fidoyu yori joni boʻlgʻali<br>Der na ekin oshiqi bechora ul jonni netar.                  |
| 8 |                                                                                                         | Holini naylab nihon tutsun Navoiy xastakim,<br>Yetsa ashkin oh urar, yigʻlar agar ohin tiyor.           |

Koʻrinadiki, “Navodir un-nihoya”dan koʻchib oʻtgan gʻazal baytlararo jiddiy oʻzgarishga uchragan. “Favoyid ul-kibar”dagi shaklida 8 bayt hosil boʻldi. Biroq “Jon aziz asru fidoyu yori joni boʻlgʻali /Der na ekin oshiqi bechora ul jonni netar” misrasi faqatgina Parij nusxasida bor. Qolgan har 7 bayt ham joyi almashgan.

Har holda aksariyat nashrlarda uchramaydigan baytlar Navoiyning oʻzi tomonidan ongli tarzda kiritilmagan boʻlishi mumkin degan xulosa chiqardik. Ammo bugungi kun ilm-fani buyuk shoirga tegishli har qanday soʻzni, satrni qadrlaydi. Sababi ular shoir ijodining mahsuli, navoiyona tafakkur mevalari. Faqatgina Parij kulliyotidagi mavjud baytlar ham oʻz oʻrnida fanda katta ilmiy qimmat kasb etadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами. 20 жилдлик. 6-жилд: Хазойин ул-маоний: Фавойид ул-кибар. Илмий-танқидий матн асосида нашрга тайёрловчи: Ҳамид Сулаймон. – Тошкент: Фан, 1990.
2. Алишер Навоий. Фавойид ул-кибар. Хазойин ул-маоний. Тўртинчи девон. – Тошкент: Tamaddun, 2011. – 780 бет.
3. Алишер Навоий. Фавойид ул-кибар. Хазойин ул-маоний. Тўртинчи девон. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2021. – 840 бет.
4. Alisher Navoiy. Kulliyot. Qo'lyozma. Fransiya Milliy kutubxonasi. Suppl. Turc. 317-inv. raqam.
5. Мадалиева, О. Алишер Навоий девонлари қўлёзмаларининг таркибий-қийсий тадқиқи. – Тошкент: Donishmand ziyosi, 2021. - 680 б.
6. Ҳакимов Муҳаммаджон. Алишер Навоий “Куллиёт”ини илмий тавсифлаш тажрибасидан. // Адабий мерос. – Тошкент, 1980. № 3 (15). – Б. 9 – 16.
7. Ҳакимов Муҳаммаджон. Шарқ китобат ишида “Куллиёт”нинг ўрни // Адабий мерос. – Тошкент, 1988. 3(45). – Б. 74 – 77.
8. Сулаймон Ҳамид. Алишер Навоийнинг Париж куллиёти. // Шарқ юлдузи. – Тошкент, 1981. № 2. – Б. 191 – 194.
9. Сулаймон Ҳамид. Алишер Навоий куллиёти қўлёзмалари тадқиқотидан // Адабий мерос. – Тошкент, 1973. №3. – Б. 83 – 93.
10. Сулаймонов Ҳ. “Хазойинул-маоний” текстларини ўрганиш ва нашрга тайёрлашнинг асосий масалалари. // Алишер Навоий. “Хазойинул-маоний”. Т. 1.: “Ғаройибус-сиғар”. – Т.: Ўз ССР ФА нашриёти, 1959. 17-б.

## HUSAYN BOYQARO – HUSAYNIY ADABIY MEROSINING O'ZBEKISTONDA O'RGANILISHI

**Jo'rayeva Husnigul Bo'riyevna**

*TDO'TAU doktoranti, PhD*

[jorayevahusnigul@gmail.com](mailto:jorayevahusnigul@gmail.com)

10.52773/tsuull.conf.navoiy.2025/VLVD4247

**Annotatsiya.** *Xuroson davlatining hukmdori Sulton Husayn Boyqaro sohibi devon shoir sifatida o'z davrida mashhur bo'lgan. Maqolada shoh va shoir Husayniy ijodining O'zbekistonda o'rganilishi xronologik tartibda kuzatilgan. O'zbek husayniyshunosligida amalga oshirilgan tadqiqotlar ilmiy jihatdan tahlil etilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Hiro, shoh, shoir, qo'lyozma, adabiy muhit, Xuroson, Boyqaro, an'ana.*

### **HUSAYN BAYQARO – STUDY OF HUSAYNI'S LITERARY HERITAGE IN UZBEKISTAN**

**Abstract.** *This article examines the poetic and ruling legacy of Sultan Hussain Baykara, who was renowned in his time as a poet under the pen name Husayni. The study traces the development of Husayni's literary and political contributions chronologically, focusing on their historical and cultural significance. Additionally, the article provides a scientific analysis of the research conducted in Uzbekistan on Husayni studies, evaluating the progress and key findings in the field.*

**Keywords:** *Herat, king, poet, manuscript, devan, secretary, ghazal, art, tradition.*

Turkiy xalqlar tarixida ilm-fan, san'at, adabiyotga homiylik qilgan hukmdorlar ko'p bo'lgan. Ularning rahnamoligi ostida Turon zaminida ilm-u hunar, madaniyat, ma'rifat taraqqiy etgan. Ana shunday siymolar qatorida Mirzo Ulug'bek,

| <b>MUNDARIJA<br/>CONTENTS</b>                                                                                                                                                       |     |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| <b>Shuhrat SIROJIDDINOV.</b><br>Turkiy dunyo hamkorligining mustahkam asosi<br>Туркі әлем ынтымақтастығының мықты негізі                                                            | 7   |
| <b>Қанат БАЙБОЛОВ.</b><br>Екі халық арасындағы бауырлық пен достық рәмізі<br>Ikki xalq qardoshligi va do'stligi simvoli                                                             | 11  |
| <b>I SHO'BA. ALISHER NAVOIY ADABIY MEROSINING JAHON<br/>TAMADDUNIDA TUTGAN O'RN</b><br><b>SECTION I. THE PLACE OF ALISHER NAVAII'S LITERARY HERITAGE IN<br/>WORLD CIVILIZATION</b>  |     |
| <b>Boqijon TO'XLIYEV. Nasimiy va Navoiy nazmi – badiiy<br/>tafakkurning yangi bazmi</b>                                                                                             | 15  |
| <b>Islam JEMENEY. Әлішер Навои</b>                                                                                                                                                  | 23  |
| <b>Yashar QOSIM. Dohiy Alisher Navoiyning ulug' izdoshi (Muhammad<br/>Fuzuliy sheiriyatida poetik in'ikos tarzining o'ziga xosligi)</b>                                             | 35  |
| <b>Qodirjon ERGASHEV. Renessans adabiyotida etologik janr<br/>taraqqiyoti</b>                                                                                                       | 42  |
| <b>Əlimuxtar MUXTAROV. Nizami Gencevi ve Alişir Navai'nin tür ruhu<br/>eserlerinin ve araştırmacılarının gözü ile</b>                                                               | 47  |
| <b>Roviyajon ABDULLAYEVA. Alisher Navoiy fenomeni yoxud Navoiy<br/>ijodining olamshumul ahamiyati</b>                                                                               | 52  |
| <b>Насриддин НАЗАРОВ. Гуманизм и креативность в творчестве<br/>Наваи как фактор обеспечения связей между народами<br/>Евразии</b>                                                   | 60  |
| <b>Burobiya RAJABOVA. O'zbek navoiyshunoslari Jomiy haqida</b>                                                                                                                      | 67  |
| <b>Karomat MULLAXO'JAYEVA. Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy<br/>g'azallarida Yusuf (a. s.) siymosining badiiy talqinlari</b>                                                      | 77  |
| <b>Tozagul MATYOQUBOVA. Sharq adabiyotining yetuk tadqiqotchisi</b>                                                                                                                 | 82  |
| <b>Nosir JO'RABOYEV. Ikki turkman hukmdori ijodi va Alisher Navoiy</b>                                                                                                              | 87  |
| <b>Молдасанов Е.М., АБДУВАЛИТОВ Н.Б. Әлем әдебиетінің асқар<br/>шыңы (Әлішер Науаидың 584 жылдығына орай)</b>                                                                       | 95  |
| <b>Hulkar HAMROYEVA. Alisher Navoiy ijodida san'at talqini</b>                                                                                                                      | 99  |
| <b>Злиха ЖАНТАСОВА. Шығыс әдебиетінің қазақ фольклорындағы<br/>көрінісі</b>                                                                                                         | 103 |
| <b>Sherxon QORAYEV. Alisher Navoiy Badaxshon shohi va shoir Sulton<br/>Muhammad La'liy ijodi tadqiqotchisi (Navoiy va uning<br/>zamondoshlari tazkiralari ma'lumotlari asosida)</b> | 109 |
| <b>Ahmad AKHLAQUE, Asror Allayarov. Alisher Navoi's creative<br/>works: a scientific exploration</b>                                                                                | 115 |

|                                                                                                                                                                                                             |     |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| <b>Fayzulla ISKANDAROV, Dostonjon Tojiev.</b> “Alisher Navoi international award”: establishment and historical significance for the turkic world                                                           | 118 |
| <b>Diyora ABDUJALILOVA.</b> Alisher Navoiy va Yahyobey Toshlijali dostonlarida shayx va avliyolar timsoli                                                                                                   | 124 |
| <b>Orifjon OLIMJANOV.</b> Alisher Navoiy va Lorendeli Hamdiy “Layli va Majnun” dostonlari kompozitsiyasiga doir                                                                                             | 131 |
| <p style="text-align: center;"><b>II SHO‘BA. NAVOIY NAZMIY, NASRIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI</b><br/> <b>SECTION II. ISSUES OF STUDYING NAVAIY'S POETRY, PROSE AND SCIENTIFIC HERITAGE</b></p> |     |
| <b>Nurboy JABBOROV.</b> Alisher Navoiy “Tarixi anbiyo va hukamo” asarining siyarnoma turkumida tutgan o‘rni                                                                                                 | 136 |
| <b>Nusratullo JUMAXO‘JA.</b> Navoiyning yigitlik lirikasiga mansub mustazodi                                                                                                                                | 149 |
| <b>Maqsud ASADOV.</b> Alisher Navoiy “Tanbeh”larining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari (“Mahbub ul-qulub” asari misolida)                                                                                      | 155 |
| <b>Dr. Kemal Yavuz ATAMAN.</b> Ali Şir Nevaî beyitlerinde kulluk şuuru                                                                                                                                      | 160 |
| <b>Zuhriddin ISOMIDDINOV.</b> Navoiyning “qaychi” g‘azali                                                                                                                                                   | 165 |
| <b>Baxtiyor FAYZULLOYEV.</b> Qo‘qon adabiy muhitida Navoiyga izdoshlik                                                                                                                                      | 170 |
| <b>Iqboloy ADIZOVA.</b> Adabiy ta’sir va poetik tafakkurning yangilanishi                                                                                                                                   | 177 |
| <b>Nafas SHODMONOV, G‘iyosiddin SHODMONOV.</b> Olti dostonida Odam Ato timsoli talqini                                                                                                                      | 185 |
| <b>Faridaxon KARIMOVA.</b> Xorazm adabiy muhitida debochanavislik an’analari                                                                                                                                | 193 |
| <b>Islomjon YAQUBOV.</b> O‘zaro ta’sir, ijodiy mushtaraklik va o‘ziga xoslik                                                                                                                                | 200 |
| <b>Shavkat HAYITOV, Gulshod SHOYIMOVA.</b> Alisher Navoiyning nabotot va hayvonot olamiga munosabati                                                                                                        | 205 |
| <b>Obidjon KARIMOV.</b> Alisher Navoiy irfoniy olamining yangicha talqini                                                                                                                                   | 212 |
| <b>Gulbahor ASHUROVA.</b> O‘zbek ayol shoiralari ijodida Alisher Navoiy obrazi tasvirlari                                                                                                                   | 216 |
| <b>Qo‘ldosh PARDAYEV.</b> Navoiy g‘azallariga Muqimiyning nazira va taxmislari                                                                                                                              | 221 |
| <b>Ilyos ISMOILOV.</b> Abror hayrati                                                                                                                                                                        | 226 |
| <b>Shermuhammad AMONOV, Abdulhaq RAHIMI.</b> Alisher Navoiy mustazodiga bog‘langan muxammas haqida                                                                                                          | 229 |
| <b>Zilola AMONOVA, Shahlola SAFAROVA.</b> “Farhod va Shirin” dostonidagi na’t boblarning manbalari va badiiyati                                                                                             | 235 |
| <b>Abdulhamid QURBONOV.</b> Badiiy matn va tasviriy vositalar mutanosibligi                                                                                                                                 | 242 |
| <b>Muqaddas TOJIBOYEVA.</b> Abdulla Qodiriy romanlarida Alisher Navoiyga izdoshlik masalalari xususida                                                                                                      | 248 |
| <b>Orzigul HAMROYEVA.</b> Radifning bayt kompozitsiyasidagi o‘rni                                                                                                                                           | 252 |

|                                                                                                                                                                    |     |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| <b>Ma'rifat RAJABOVA.</b> Xalq maydon kulgi san'ati belgilarining Navoiy ijodidagi ko'rinishlari                                                                   | 256 |
| <b>Nodira SOATOVA.</b> "Farhod va Shirin" dostoni – an'ana takomili, taraqqiysi hamda sintezi sifatida                                                             | 260 |
| <b>Umida RASULOVA.</b> "Alisher Navoiy" romanida obraz poetikasi                                                                                                   | 266 |
| <b>Marg'uba ABDULLAYEVA.</b> Yetti sayyora: badiiy talqin va ilmiy dunyoqarash                                                                                     | 269 |
| <b>Sohiba UMAROVA.</b> Suyuma G'aniyeva – navoiyshunos                                                                                                             | 273 |
| <b>Zuhra MAMADALIYEVA.</b> Alisher Navoiy "Xamsa"sida mirrix obrazining majoziylik xususiyatlari                                                                   | 277 |
| <b>Aziz RAJABIY.</b> Alisher Navoiy g'azallarining ohang jilolari (Yunus Rajabiy musiqiy merosi misolida)                                                          | 282 |
| <b>Zarif QUVONOV.</b> "Hayrat ul-abror"ning yangi tadqiqatlari xususida                                                                                            | 286 |
| <b>Farruxbek ABDALIYEV, Gulnoza OSMANOVA.</b> "Xamsa"da "kampir" obrazi talqini                                                                                    | 290 |
| <b>Nafisa RAXMANOVA.</b> Ramziy-majoziy obrazlar ta'vili haqida mulohazalar                                                                                        | 293 |
| <b>Kamola ULUG'MURODOVA.</b> Navoiy nazmida Layli obrazining badiiy talqini                                                                                        | 299 |
| <b>Mavluda ORTIQOVA.</b> Alisher Navoiyning "Nasoyim ul-muhabbat" asarida valiylarga xos sifatlar talqini                                                          | 303 |
| <b>Jamila EISAR.</b> Alisher Navoiyning she'riyatida oyina timsolining talqini ("G'aroyib us-sig'ar misolida")                                                     | 308 |
| <b>Azizbek TOSHPO'LATOV.</b> Alisher Navoiyga izdoshlik: Ahmad Tabibiy taxmislari                                                                                  | 313 |
| <b>Sevara PARMONOVA.</b> Tasavvufiy tazkiralari va Alisher Navoiy asarlarida Ibrohim Adham nomining zikr etilishi                                                  | 318 |
| <p><b>III SHO'BA. ALISHER NAVOIY ASARLARINING MANBALARI VA MATNIY TADQIQI</b></p> <p><b>SECTION III. SOURCES AND TEXTUAL RESEARCH OF ALISHER NAVAI'S WORKS</b></p> |     |
| <b>Dilnavoz YUSUPOVA, Umedullo MAHMUDOV.</b> Alisher Navoiyning "Munshaoti Abdulloh Marvorid"dan o'rin olgan forsiy maktublari xususida                            | 323 |
| <b>Manzar ABDULXAYROV.</b> Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" dostoni tabdillari tahlili                                                                        | 330 |
| <b>Dr. Farhad RAHIMI.</b> Senglah Sözlüğünün Feraği Düzeltmeleri ve Feraği'den Yanlış ktarmaları Üzerine                                                           | 335 |
| <b>Gholamreza RAZMI.</b> Özbekistan'da yayimlanmış iki Hayretü'l-ebrar'in tashih edilmiş metnindeki hatalarin sebeplerine bir bakiş                                | 352 |
| <b>Altay NOORULLAH.</b> Navoiy asarlarida tinish belgilarining yanglish ishlatilishi                                                                               | 365 |

|                                                                                                                                                                                                                                                                                      |     |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| <b>Sevda BEHESHTI.</b> Navai's Poetry as Reflected in Miniature Paintings<br>(A study of Illustrated manuscripts preserved in Iranian collections)                                                                                                                                   | 376 |
| <b>Oysara MADALIYEVA.</b> Alisher Navoiyning dastlabki ikki devoni<br>Hamid Sulaymon nigohida                                                                                                                                                                                        | 384 |
| <b>Dr. Siyamek HÜSSEYINALIZADE (Ergin Avşar).</b> Amîr Alî Şîr<br>Nevaî'nin şiirlerinde Şamanlığa aid Terimler ve ritüeller                                                                                                                                                          | 395 |
| <b>Ozoda TOJIBOYEVA.</b> Parij kulliyotidagi "Favoyid ul-kibar"ning<br>matniy xususiyatlari                                                                                                                                                                                          | 407 |
| <b>Husnigul JO'RAYEVA.</b> Husayn Boyqaro – Husayniy adabiy<br>merosining O'zbekistonda o'rganilishi                                                                                                                                                                                 | 412 |
| <b>Dilnoza RUSTAMOVA.</b> Alisher Navoiy toshbosma devonlaridagi<br>ayrim g'azallar matnining qo'lyozma nusxalar bilan qiyosi                                                                                                                                                        | 417 |
| <b>Erfan ESHGHÎNOUR.</b> Fâni Divanındaki Avnî Divanından Tercüme<br>Olunmuş Şiirler Üzerine                                                                                                                                                                                         | 423 |
| <b>Lochinbek AHMADALIYEV.</b> Po'latjon Qayyumiy tazkiralarda Alisher<br>Navoiy faoliyatining yoritilishi                                                                                                                                                                            | 433 |
| <b>Dilnavoz SATTOROVA.</b> Navoiy g'azallariga Sa'diy taxmislari                                                                                                                                                                                                                     | 438 |
| <p style="text-align: center;"><b>IV SHO'BA. ALISHER NAVOIY ASARLARINING XORIJIY TILLARGA<br/>TARJIMASI VA CHET ELLARDA O'RGANILISHI</b></p> <p style="text-align: center;"><b>SECTION IV. TRANSLATION OF ALISHER NAVA'I'S WORKS INTO FOREIGN<br/>LANGUAGES AND STUDY ABROAD</b></p> |     |
| <b>Hulkar HAMROYEVA, Shahlo NARALIYEVA, Ozodaxon<br/>MUSAYEVA.</b> Qozog'istonda Mir Alisher Navoiy ijodining<br>o'rganilishi                                                                                                                                                        | 444 |
| <b>Abdulhay SOBIROV, Zamira DJURABAYEVA.</b> "Muhokamat ul-<br>lug'atayn" – turkiy xalqlar leksikasining so'nmas bulog'i                                                                                                                                                             | 451 |
| <b>Münevver TEKCAN, Serpil Yazıcı ŞAHİN.</b> Muhakamat al-lughatayn's<br>literary and academic aspects.                                                                                                                                                                              | 455 |
| <b>Бермет ЗАКИРОВА, Дамилова НУРИЙЛА.</b> Алишер Навоинин<br>чыгармаларындагы тилдик каражаттар аркылуу<br>студенттин кеп маданиятын өстүрүү                                                                                                                                         | 462 |
| <b>Nishonboy XUSANOV.</b> "Hayrat ul-abror"dagi teonimlarning semantik<br>va badiiy xususiyatlari                                                                                                                                                                                    | 468 |
| <b>Mardon RAHMATOV.</b> Qo'shma fe'l komponentlari inversiyasi                                                                                                                                                                                                                       | 472 |
| <b>Rashid ZOHID.</b> Hayot – firoq manzili                                                                                                                                                                                                                                           | 478 |
| <b>Shahlo HOJIYEVA.</b> Alisher Navoiy badiiy kashfiyotlari – Cho'lpon<br>estetik tafakkuri yangilanishi omili                                                                                                                                                                       | 482 |
| <b>Mo'minjon SULAYMONOV.</b> Alisher Navoiy davrida isiriq solinganmi?                                                                                                                                                                                                               | 488 |
| <b>Abdumurod TILAVOV.</b> Alisher Navoiy ma'naviy merosi va<br>zamonaviy ta'lim                                                                                                                                                                                                      | 492 |
| <b>Nilufar RASULOVA.</b> Alisher Navoiyning boqiy merosi jahon tillarida                                                                                                                                                                                                             | 497 |
| <b>Ozodaxon MUSAYEVA, Gulchehra SULTONOVA.</b> "Muhokamat ul-<br>lug'atayn" asaridagi turkiy fe'llar va omonim so'zlar tahlili                                                                                                                                                       | 502 |

|                                                                                                                                                                    |     |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| <b>Iroda ISHONXANOVA.</b> Alisher Navoiy hayoti va ijodining “Литература” darsliklarida aks etishi                                                                 | 505 |
| <b>Shahlo NARALIYEVA, Farrux ABDALIYEV.</b> Hazrat Navoiy ijodida nutq madaniyati                                                                                  | 514 |
| <b>АШИРОВА Т.К., КАРАЕВА Н.О., ЗАКИРОВА Б.А.</b> Алишер Навоинин чыгармаларын санарип платформалар аркылуу жайылтуу                                                | 518 |
| <b>Dilorom YULDASHEVA, Shahlo NARALIYEVA.</b> Alisher Navoiyning didaktik qarashlari                                                                               | 523 |
| <b>Komiljon ABDULLAYEV.</b> Ta’lim tizimi bosqichlarida Alisher Navoiy hayoti va ijodini o’rgatishda fanlararo integratsiyadan foydalanish                         | 527 |
| <b>Gulnoza YULDASHEVA, Sevinch UBAYDULLAYEVA.</b> “Lison ut-tayr” dostonining ayrim morfemik xususiyatlari tahlili                                                 | 531 |
| <b>Feruza DJUMANIYAZOVA.</b> Alisher Navoiy ijodida milliy etnosport o’yinlari                                                                                     | 534 |
| <b>Hamida JURAQOBILOVA.</b> O’zbek she’riy matnlaridagi kognitiv metaforalarning fransuz tilida ifodalanishi                                                       | 539 |
| <b>Abdug’ani NASRIDDINOV.</b> Navoiyshunoslikda yangicha yondashuv                                                                                                 | 544 |
| <b>TEZISLAR</b><br><b>ADABIYOTSHUNOSLIK</b>                                                                                                                        |     |
| <b>AHMADOVA Shohsanam.</b> Hofiz Xorazmiy va Alisher Navoiy ijodida zohid obrazi tasviri                                                                           | 550 |
| <b>ABDURAIMOVA Xafiza.</b> Alisher Navoiy g’azaliyotida Doro obrazi talqinlari                                                                                     | 553 |
| <b>ALIYEVA Sevinch.</b> Anbiyolar haqidagi manbalarda Iso payg’ambar obrazi tasviri                                                                                | 556 |
| <b>ALMARDONOVA Aziza.</b> Alisher Navoiy tarji’bandlarida dunyo ramzi                                                                                              | 561 |
| <b>DEHQONOV Akramjon.</b> Bir g’azal sharhi                                                                                                                        | 564 |
| <b>DOLIMOV Shokir.</b> «Hayrat ul-abror» dostoni sharhining rus tiliga tarjimasi xususida                                                                          | 567 |
| <b>GAFUROVA Shaxnoza.</b> Navoiy me’rojnoma baytlarida qo’llangan badiiy san’atlar                                                                                 | 569 |
| <b>IBOTOVA Madina.</b> Alisher Navoiy g’azallarida jon va ishq munosabatining badiiy ifodasi                                                                       | 572 |
| <b>MEYLIYEV Xudoyberdi.</b> Navoiy va zamondoshlari asarlarida Mirzo Mironshoh saroyi adabiy muhiti va shoir Lutfulloh Nishopuriy ijodiy faoliyatining yoritilishi | 576 |
| <b>MUQUMOVA Surayyo.</b> “Nasoyim ul-muhabbat”: ism, xosiyat va xususiyat                                                                                          | 579 |
| <b>NASRULLAYEV Elmurod, SIROJIDDINOVA Sevinch.</b> Xalq og’zaki ijodida Navoiy timsoli talqini                                                                     | 581 |

|                                                                                                                                            |     |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| <b>NURULLAYEVA Hulkaroy, MAMADALIYEVA Madina.</b> Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asarini o‘qitish bo‘yicha ayrim mulohazalar         | 584 |
| <b>OLIMJONOV Davronbek.</b> “Boburnoma” asarida tarixiy shaxslar tavsifi (Alisher Navoiy shaxsi misolida)                                  | 587 |
| <b>PARDAYEVA Nigora, PIRNAZAROVA Barno.</b> Navoiy lirikasida kichik lirik janrlar                                                         | 589 |
| <b>SHOMURODOV San‘at.</b> Alisher Navoiy va Husayn Boyqaro munosabatlari isajon sulton talqinida                                           | 593 |
| <b>TO‘XTAMURATOV Furqat.</b> Alisher Navoiy g‘azaliga Muhsiniy tatabbu’si                                                                  | 596 |
| <b>TURDIYEVA Maftuna.</b> “Layli va Majnun” dostonlari kompozitsiyasidagi ba’zi farqli jihatlar                                            | 599 |
| <b>UMAROVA Dildor.</b> Alisher Navoiy asarlarida sukut go‘zalligi ifodasi                                                                  | 602 |
| <b>UMAROV Sardorbek.</b> Ma’rifatning haqiqati – hayratdir                                                                                 | 604 |
| <b>YANGIBOYEV Shavkat.</b> Ito haqida                                                                                                      | 607 |
| <b>TILSHUNOSLIK</b>                                                                                                                        |     |
| <b>YULDASHEVA Dilorom.</b> Alisher Navoiy asarlarida rang-tus ifodalovchi birliklar                                                        | 611 |
| <b>AXMADJANOVA Malika.</b> Alisher Navoiy va o‘zbek tilining boyitilishi: ilmiy metodlar va uslublar                                       | 613 |
| <b>AKBAROVA Zulfizargul.</b> Alisher Navoiy asarlarida qo‘llanilgan antonimlik hosil qiluvchi “Ahl” komponentli lug‘aviy birliklar tahlili | 617 |
| <b>YUSUPOVA Dildora.</b> Alisher Navoiy asarlarida qimmatbaho tosh nomlari                                                                 | 619 |
| <b>MUNDARIJA</b>                                                                                                                           | 622 |